



YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA KITOBXONLIKNING O'RNI

Boltayev Baxtiyor Yunusovich

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi
huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi o'qituvchisi,
kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8153332>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitob, kitobxonlik, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitob, mutolaa, savodsizlik, dunyoqarash, kitobxonlik, madaniyat.

Insonning ma'naviyati, uning mustaqil dunyoqarashi, mustahkam e'tiqodi, ijtimoiy faolligi, jamiyat va tabiat oldidagi yuksak axloqiy mas'uliyatini chuqur anglab yetganligi to'g'risida so'z borganda barkamol shaxslar nazarda tutiladi. Bu tushuncha uning shaxs sifatida o'zligini anglash, o'zi va insoniyat oldida fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etish fazilati bilan uzviy bog'langandir. Shuning uchun ham bugungi kunda Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda kitobxonlikning o'rni beqiyos. Kitobxonlikni yuksaltirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 13-dekabr kuni qabul qilingan 3271-sonli Qarori "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi", 2020-yil 14-dekabr kunidagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son Qarori va "Besh tashabbus" loyihalari muhim ahamiyat kasb etadi. Besh tashabbusning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgandir. O'zbekiston "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror topishiga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda [1,19].

Kitob dilni poklovchi, ruhni oziqlantiruvchi malhamdir. Kitobga mehrsiz odam tuzalmas bemorga o'xshaydi. Kitob shunchalik quvvatga egaki, bejizga donishmandlarimiz oftob misol ko'nglimizga iliqlik, ezgulik baxsh etishni, bilim berishni, ma'naviy boyitishni, ruhiy quvvatlantirishni, yo'limizni mash'aladek



yoritishni kitobchalik boshqa hech narsa bera olmasligini hayotiy hikmatlarda bot-bot takrorlab o'tishmagan. Buni biz yetuk mutafakkir Muhammad Jabalduriyning quyidagi fikrlarida ham ko'rishimiz mumkin: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atga tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar, suhbatidan zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob "Aql qal'asidir" [2,39].

Darhaqiqat, kitob mutolaasi insonni o'zini anglashga, borliqni tushunishga, umuman aytganda, sehli olamga olib kiradi. Inson uchun kundalik ehtiyoj sanalgan suv qanchalik zarur ekan, kitob ham inson hayotida xuddi shunchalik zaruratga aylansagina komillikka yetishishimiz shubhasiz. Inson uchun o'qiyolmay qolish bu-fojia, bu-jaholat demakdir. Afsuski, shunday bo'lsa-da bugungi kunga kelib kitob o'quvchilar soni biroz kamayganday go'yo. Ko'pchilik internet olamiga sho'ng'ib ketgan kitoblar qarovsiz qolayotganday. Yoshlarimizni mana shunday o'rgimchak to'ridan, ommaviy madaniyatdan qutqarishning yagona yo'li bu badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishdir.

Sharq Uyg'onish davrida ham jadidlar faoliyatida ham jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'z o'rni bo'lgan. Sharq Uyg'onish davrida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar, temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, XX asrning boshlarida esa jadidlarimiz ya'ni Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Elbeklar tomonidan yoshlar tarbiyasiga doir ko'plab kitoblar yaratilgan. Bu kitoblarning yaratilishi savodsizlikni oldini olish, muammoning yechimini topish uchun foydalanilgan. Kitob o'qilmay qo'yilsa global muammolardan biri bo'lgan savodsizlikka yo'l ochiladi, savodsizlik esa katta parokandalik demakdir. Bu parokandalikni, savodsizlikni Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasida yaqqol ko'rish mumkin. Orqa-oldini o'ylamagan boy yolg'iz o'g'lini o'qitmaydi, atrofdagilarning gapiga quloq tutmaydi, oqibatda o'g'li ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Maishatga berilgan o'g'il sheriklari bilan tunda uyiga o'g'rilikka keladi va otasini o'limiga sabab bo'ladi.



POLAND



POLAND

Asar yakuniga savodsizlik, jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga balo bo'lib, hayotini tubsiz jarga qulatganini guvohi bo'lish mumkin. Bugungi kunda butun millat shu ahvolga tushsa-chi? Butun millat shu ahvol tushsa, jamiyat yemirilib, tanazzulga uchraydi. Demak, fikrlashdan to'xtamaslik uchun ko'proq kitob o'qish kerak.

Biz farzandlarimizning iste'dodini vaqtida payqab, ularni ma'lum maqsad sari yo'naltira bilsak, uning qalbini tarbiyalay olsak, shunda ularga ko'proq yordam bergan bo'lamiz. Kitob o'qigan, o'z bilimlarini muntazam oshirib borgan o'quvchi-yoshlar O'zbekiston kelajagini bunyod etishda, Uchinchi Renesans davriga poydevor qurishda faol ishtirok etadilar. Shuning uchun ham kitobni yaxshilik va yorug'lik, ma'rifatga eltuvchi kelajak yo'li desak, mutolaaga ana shu yo'lni yorituvchi mayoqdir deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston", 2017, 114-bet.
2. Roziyev E., Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. T.: Fan, 2004. 194-bet.
3. Mashriq zamin – hikmat bo'stoni. –T.: Sharq, 1997. 39-bet.

